

MUHAMMAD AL-XORAZMIY
NOMIDAGI TATU FARG'ONA FILIALI

FERGANA BRANCH OF TUIT
NAMED AFTER MUHAMMAD AL-KHORAZMI

“AL-FARG'ONIY AVLODLARI”

ELEKTRON ILMIY JURNALI | ELECTRONIC SCIENTIFIC JOURNAL

TA'LIMDAGI ILMIY, OMMABOP VA ILMIY TADQIQOT ISHLARI



2-SON 1(2)
2023-YIL

TATU, FARG'ONA
O'ZBEKISTON



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VAZIRLIGI

MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
FARG'ONA FILIALI

Muassis: Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg'ona filiali.

Chop etish tili: O'zbek, ingliz, rus. Jurnal texnika fanlariga ixtisoslashgan bo'lib, barcha shu sohadagi matematika, fizika, axborot texnologiyalari yo'nalishida maqolalar chop etib boradi.

Учредитель: Ферганский филиал Ташкентского университета информационных технологий имени Мухаммада ал-Хоразми.

Язык издания: узбекский, английский, русский.

Журнал специализируется на технических науках и публикует статьи в области математики, физики и информационных технологий.

Founder: Fergana branch of the Tashkent University of Information Technologies named after Muhammad al-Khorazmi.

Language of publication: Uzbek, English, Russian.

The magazine specializes in technical sciences and publishes articles in the field of mathematics, physics, and information technology.

2023 yil, Tom 1, №2
Vol.1, Iss.2, 2023 y

ELEKTRON ILMIY JURNALI

ELECTRONIC SCIENTIFIC JOURNAL

«Al-Farg'oniylar avlodlari» («The descendants of al-Fargani», «Potomki al-Fargani») O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2022-yil 21 dekabrda 054493-son bilan ro'yxatdan o'tgan.

Tahririyat manzili:

151100, Farg'ona sh., Aeroport ko'chasi 17-uy, 201A-xona

Tel: (+99899) 998-01-42

e-mail: info@al-fargoniy.uz

Qo'lyozmalar taqrizlanmaydi va qaytarilmaydi.

FARG'ONA - 2023 YIL

TAHRIR HAY'ATI

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich,

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Muxtarov Farrux Muhammadovich,

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg'ona filiali direktori, texnika fanlari doktori

Arjannikov Andrey Vasilevich,

Rossiya Federatsiyasi Sibir davlat universiteti professori, fizika-matematika fanlari doktori

Satibayev Abdugani Djunosovich,

Qirg'iziston Respublikasi, Osh texnologiyalari universiteti, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Rasulov Akbarali Maxamatovich,

Axborot texnologiyalari kafedrasida professori, fizika-matematika fanlari doktori

Yakubov Maksadxon Sultaniyazovich,

TATU «Axborot texnologiyalari» kafedrasida professori, t.f.d., professor, xalqaro axborotlashtirish fanlari Akademiyasi akademigi

Bo'taboyev Muhammadjon To'ychiyevich,

Farg'ona politexnika instituti, Iqtisod fanlari doktori, professor

Abdullayev Abdujabbor,

Andijon mashinosozlik instituti, Iqtisod fanlari doktori, professor

Qo'ldashev Abbasjon Hakimovich,

O'zbekiston milliy universiteti huzuridagi Yarimo'tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika ilmiy-tadqiqot instituti, texnika fanlari doktori, professor

Ergashev Sirojiddin Fayazovich,

Farg'ona politexnika instituti, elektronika va asbobsozlik kafedrasida professori, texnika fanlari doktori, professor

Qoraboyev Muhammadjon Qoraboievich,

Toshkent tibbiyot akademiyasi Farg'ona filiali fizika matematika fanlari doktori, professor, BMT ning maslahatchisi maqomidagi xalqaro axborotlashtirish akademiyasi akademigi

Naymanboyev Raxmonali,

TATU FF Telekommunikatsiya kafedrasida faxriy dotsenti

Polvonov Baxtiyor Zaylobiddinovich,

TATU FF Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha direktor o'rinbosari

Zulunov Ravshanbek Mamatovich,

TATU FF «Dasturiy injiniringi» kafedrasida dotsenti, fizika-matematika fanlari nomzodi

Saliyev Nabijon,

O'zbekiston jismoniy tarbiya va sport universiteti Farg'ona filiali dotsenti

G'ulomov Sherzod Rajaboyevich,

TATU Kiberxavfsizlik fakulteti dekani, Ph.D., dotsent

G'aniyev Abduxalil Abdujalioviyevich,

TATU Kiberxavfsizlik fakulteti, Axborot xavfsizligi kafedrasida t.f.n., dotsent

Zaynidinov Hakimjon Nasritdinovich,

TATU Kompyuter injiniringi fakulteti, Sun'iy intellekt kafedrasida texnika fanlari doktori, professor

Abdullaev Temurbek Marufovich,

Kafedra mudiri, texnika fanlar bo'yicha falsafa doktori

Bilolov Inomjon O'ktamovich,

Kafedra mudiri, pedagogika fanlar nomzodi

Daliev Baxtiyor Sirojiddinovich,

Fakultet dekani, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori

Zokirov Sanjar Ikromjon o'g'li,

Kafedra mudiri, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori

Ibroximov Nodirbek Ikromjonovich,

Dasturiy injiniring va raqamli iqtisodiyot fakulteti dekani, fizika-matematika fanlari bo'yicha PhD

Kochkorova Gulnora Dexkanbaevna,

Kafedra mudiri, falsafa fanlari nomzodi

Kadirov Abdumalik Matkarimovich,

Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, falsafa fanlar bo'yicha falsafa doktori

Nurdinova Raziya Abdixalikovna,

Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori

Otakulov Oybek Hamdamovich,

Kompyuter injiniringi fakulteti dekani, texnika fanlar nomzodi, dotsent

Obidova Gulmira Kuziboevna,

Kafedra mudiri, falsafa fanlari doktori

Rayimjonova Odina Sodiqovna,

Kafedra mudiri, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Sabirov Salim Satiyevich,

Kafedra mudiri, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

Teshaboev Muhiddin Ma'rufovich,

Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori

To'xtasinov Dadaxon Farxodovich,

Kafedra mudiri, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Jurnal quyidagi bazalarda indekslanadi:



MUNDARIJA | ОГЛАВЛЕНИЕ | TABLE OF CONTENTS

| | |
|--|-------|
| Farrux Muxtarov, MAXSUS AXBOROT ALMASHUV KANALLARIGA BO'LADIGAN XAVF-XATARLARNI ANIQLASH, VAHOLASH VA BOSHQARISH HAMDA ULARNI BARTARAF ETISH USULLARINI ISHLAB CHIQUISH | 5-8 |
| Muhammadmullo Asrayev, 0-TARTIBLI BIR JINSLI FUNKSIONALLAR KO'RINISHIDAGI SODDA MEZONLAR UCHUN 1 INFORMATIV BELGILAR MAJMUASINI ANIQLASH USULLARI | 9-12 |
| Musoxon Dadaxonov, Muhammadmullo Asrayev, BERILGAN TASVIR SIFATINI VAHOLASH | 13-16 |
| Узоков Бархаёт Мухаммадиевич, АДАПТАЦИЯ МОДЕЛЕЙ ОПЕРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИМИ ПРОЦЕССАМИ ПО ТЕХНИКО-ЭКОНОМИЧЕСКИМ ПОКАЗАТЕЛЯМ | 17-22 |
| Mirzakarimov Baxtiyor Abdusalomovich, Kayumov Ahror Muminjonovich, THE CHALLENGES OF TEACHING JAVA PROGRAMMING LANGUAGE IN EDUCATIONAL SYSTEMS | 23-26 |
| Якубов М.С., Хошимов Б.М., АНАЛИЗ СОВРЕМЕННЫХ МЕТОДОВ ОПРЕДЕЛЕНИЕ ПОКАЗАТЕЛЕЙ КАЧЕСТВА НЕФТЕПРОДУКТОВ | 27-32 |
| Mirzakarimov Baxtiyor Abdusalomovich, Hayitov Azizjon Mo'minjon o'g'li, THE USE OF BIOMETRIC AUTHENTICATION TECHNIQUES FOR SAFEGUARDING DATA IN COMPUTER SYSTEMS AGAINST UNAUTHORIZED ACCESS OR BREACHES | 33-36 |
| Zulunov Ravshan Mamatovich, Kayumov Ahror Muminjonovich, THE LIMITATIONS OF TEACHING JAVA PROGRAMMING LANGUAGE IN EDUCATIONAL SYSTEMS | 37-40 |
| D.X.Tojimatov, KIBER TAHDIDLARNI BASHORAT QILISH VA XAVF-XATARLARDAN NIHOYALANISHDA SUN'IY INTELEKT IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH | 41-44 |
| Хаджаев С.И., АСИНХРОННАЯ БИБЛИОТЕКА PYTHON ASYNCIO: ПРЕИМУЩЕСТВА И ПРИМЕРЫ ПРИМЕНЕНИЯ | 45-48 |
| Kayumov Ahror Muminjonovich, CREATING AN EXPERT SYSTEM-BASED PROGRAM TO EVALUATE TEXTILE MACHINE EFFECTIVENESS | 49-52 |
| Zulunov Ravshanbek Mamatovich, Mahmudova Muqaddasxon Abdubannob qizi, TIBBIYOT MUASSASALARIDA ELEKTRON NAVBAT TIZIMI | 53-57 |
| Зулунов Равшанбек Маматович, Гуламова Диёра Ифтихар қизи, РЕЧЕВОЙ СИГНАЛ И ЕГО НОРМАЛИЗАЦИЯ | 58-60 |
| Солиев Бахромжон Набижонович, ГЕНЕРАЦИЯ АВТОМАТИЧЕСКОЙ ДОКУМЕНТАЦИИ API В DJANGO REST FRAMEWORK С ПРИМЕНЕНИЕМ DRF SPECTACULAR | 61-66 |
| Эрматова Зарина Кахрамоновна, АЛЬТЕРНАТИВНЫЕ ПОДХОДЫ К ОБРАБОТКЕ ОШИБОК: СРАВНЕНИЕ EXCEPTIONS И STD::EXPECTED В C++ | 67-73 |
| Зулунов Равшанбек Маматович, Бахрамов Ихтиёржон Бахтиёржон угли, РАЗРАБОТКА ИНСТРУМЕНТА ДЛЯ МАССОВОГО ДЕТЕКТИРОВАНИЕ ПЕРЕМЕННЫХ ЗВЁЗД | 74-80 |
| Атаджанов Шерзод Шухратович, Турсунова Азиза Ахмаджановна, ИССЛЕДОВАНИЕ И АНАЛИЗ ВЫСОКОТОЧНОГО ИТЕРАТИВНОГО ДЕКОДИРОВАНИЯ И СРАВНЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ КОДОВ | 81-89 |

MAXSUS AXBOROT ALMASHUV KANALLARIGA BO‘LADIGAN XAVF-XATARLARNI ANIQLASH, BAHOLASH VA BOSHQARISH HAMDA ULARNI BARTARAF ETISH USULLARINI ISHLAB CHIQISH

Muxtarov Farrux Muhammadovich,
TATU Farg‘ona filiali dotsenti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada korporativ tarmoq asosida qurilgan maxsus axborot almashuv kanallarida yuz berishi mumkin bo‘lgan xavf-xatarlarni aniqlash, baholash va boshqarish usullari tadqiq qilingan. Maxsus kanallarni xavf-xatarlarga bardoshli qilish hamda ularni barqaror ishlashini ta‘minlash uchun tarmoq xavfsizligi protokollari va texnologiyalari asosida xavlarni bartaraf etish usullari ishlab chiqilgan. Ishlab chiqilgan usullarni amaliyotga tadbiq qilish borasida ijobiy natijalar olingan.

Kalit so‘zlar: kanal, VPN (Virtual hususiy tarmoq), STP (Zaxiralash protokoli), LACP (kanallarni agregatlash protokoli), risk, tahdid, zaiflik, autentifikatsiya, shifrlash, deshifrlash, DDOS, firewall.

Kirish. Maxsus kanal bu – kompyuter tarmoqlari orqali axborot almashishda korporativ tarmoq uchun asosni tashkil etuvchi maxsus ajratilgan, himoyalangan aloqa liniyasi xisoblanadi. Aloqa liniyalari odatda elektron axborot signallari uzatiladigan fizik qurilma, ma'lumotlarni uzatish texnologiyalari va oraliq qurilmalaridan iborat bo‘ladi. Raqamli ma'lumotlarni uzatish asosan simli va simsiz tashkil etilgan aloqa liniyalari orqali amalga oshiriladi. Har qanday tarmoq texnologiyasi aloqa liniyalari orqali diskret ma'lumotlarning ishonchli va tezkor uzatilishini ta'minlashi kerak. Texnologiyalar o‘rtasida katta farqlar mavjud bo‘lsada diskret ma'lumotlarni uzatishning umumiy tamoyillariga asoslanadi. Ushbu tamoyillar turli xil fizik tabiatdagi aloqa liniyalarida impulsli yoki sinusoidal signallardan foydalangan holda ikkilik va nollarni ifodalash usullari, xatolarni aniqlash va tuzatish usullari, siqish usullari va almashtirish usullarini o‘z ichiga oladi.

Hozirda davlatlararo munosabatlarda, davlat va nodavlat korxonatashkilotlarida, shaxsiy ma'lumotlar almashishda uzluksizlikni ta'minlash, axborotlarni o‘g‘irlanishi, yo‘q qilinishi, o‘g‘irlanishi kabi xavflarni oldini olishda maxsus kannallar qurish hamda ulardan foydalanish keng qabul qilingan standartga aylanib bormoqda[2]. Maxsus kanal o‘z tuzilishiga ko‘ra himoyalangan tarmoq sifatida qaralsada, lekin bundan tarmoqlarni ham ma‘lum zaifliklari mavjud. Yuqorida keltirib o‘tilgan turli sohalarni texnik xizmatlarining barchasi tunellashga asoslangan maxsus kanallar hisoblanadi. Bu bir biriga misoli o‘rgimchak to‘ridek chambarchas bog‘langan kanallardan foydalanib ikki

jo‘natuvchi va qabul qiluvchi tamonning virtual yo‘lak hosil qilishidek gap. Hozirgi kunda VPN (Virtual private network) tarmog‘i texnologiyasi aynan masalani yechimi sifatida ishlatilib kelinmoqda. VPN zaifliklari albatda maxsus kanallarga xavf-xatarlarni keltirib chiqaradi. Ushbu maqolada aynan maxsus kanallarga bo‘ladigan xavf-xatarlarni aniqlash, baholash va boshqarish masalalari korib chiqilgan. Tahliliy natijalar asosida xavf-xatarlarni bartaraf etish uchun qo‘llashga bir necha yangi usullar taqdim etilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ushbu maqolani yozishda bir qancha mavzuga oid adabiyotlar, ilmiy maqolalar o‘rganib chiqilgan. Ularni orasida tarmoq xavfsizligi protokollarini o‘rganishda R.X.Djurayev, SH.YU. Djabbarov, B.M.Umirzakovlarning “Tarmoq protokollari”[1] nomli o‘quv qo‘llanmasidan foydalanilgan, davlatlararo munosabatlar o‘rnatishda raqamli texnologiyalardan foydalanish yuzasidan M.S.Yakubov, F.M.Muxtarovlarning “Цифровая Дипломатия-приоритетный фактор формирования межгосударственных отношений”[2] maqolasi, axborot tizimlariga tahdidlarni tadqiq qilishda F.Muxtorov, A.Umarov, A.Ro‘zaliyevlarning “Axborot tizimlarida xavfsizlik tahdidlarining tasnifi”[3] va D.Tojimatov, J.Mirzayevlarning “Use of Artificial Intelligence Opportunities for Early Detection of Threats to Information Systems”[4] maqolalari, xavf-xatarlarni aniqlash, baholash va boshqarishni tashkil qilishda F.Muxtarovning “Axborot xavfsizligi xavflarini tahlil qilish uchun

ierarxik aktivlarni baholash usuli"[6] maqolasi tarmoq xatoliklari haqida ma'lumot olishda Kamolovich B. E. "Tarmoqlarda uzatiladigan ma'lumotlarni xatoliklarini bartaraf etish usullari"[7] maqolasi o'rganilib, ulardan iqtiboslar keltirilgan.

Natijalar. Xar qanday tizim yoki maxsus kanallarda xavf-xatarlarni aktiv, zaiflik va tahdid keltirib chiqaradi. Aktiv tarmoq va unda o'tadigan ma'lumotlar va ularni qiymatini belgilovchi qimmatliklardir. Biror ma'lumotni hinoyalash uchun albatta ular qandaydir qiymatga ega bo'lishi kerak. Zaiflik mahsus kanaldagi nuqson yoki kamchilik deb tushunilsa, tahdid esa aynan shu zaiflikdan foydalanib amalga oshishi mumkin bo'lgan zararli hodisa hisoblanadi. Hech qanday texnologiya, tizim yoki alohida dasturlar yoki biror qiymatga ega bo'lgan ma'lumotlar bir so'z bilan aytganda aktivlar zaiflikdan holi bo'lmaydi. Shunday ekan doimo tahdidlar ham mavjud bo'ladi. Bu uch narsa ya'ni aktiv, zaiflik, tahdid xavf-xatarlarni kelib chiqishini asosiy, tarkibiy qismi hisoblanadi. Mavjud zaifliklarni bartaraf etmasdan va tahdidlarga aniqlab, ularga qarshi kurashmasdan turib xavf-xatarlarni oldini olish mumkin emas.

Zaiflik bu - tajovuzkorlar tomonidan ishlatilishi mumkin bo'lgan axborot aktivi yoki boshqarish vositalarining zaif tomonlari. Boshqacha qilib aytganda, biz axborot xavfsizligiga potentsial salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan axborot vositasi yoki tizimini yaratish/konfiguratsiya/foydalanishdagi kamchiliklar yoki xatolari xisoblanadi[4].

Shuni ta'kidlash kerakki, axborot xavfsizligi zaifligi o'z-o'zidan xavfli emas. Ular faqat axborot xavfsizligiga tahdidlarni amalga oshirish imkoniyatlarini ochib beradi. Zaifliklarning eng keng tarqalgan sabablari, qoida tariqasida, quyidagilarni o'z ichiga oladi: dasturiy ta'minotni loyihalash va ishlatishdagi xatolar; dasturiy ta'minotni ruxsatsiz joriy etish va undan keyin foydalanish; zararli dasturlarni joriy etish; inson omili.

Axborot xavfsizligi zaifliklarining juda ko'p tasniflari mavjud. Masalan, ular ob'ektiv (dasturiy ta'minotning texnik xususiyatlarining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda), sub'ektiv (dasturiy ta'minotni ishlab chiquvchilar va foydalanuvchilarning, tizim ma'murlarining harakatlari tufayli) va tasodifiy (kutilmagan holatlar tufayli) bo'linadi. Boshqa tasniflash zaifliklarning quyidagi turlarini belgilaydi: texnologik yoki

arxitektura, zarur axborot xavfsizligi texnologiyalari mavjud bo'lmaganda ifodalangan; tashkiliy, axborot xavfsizligini ta'minlashning o'rnatilgan va tartibga solinadigan tartiblari yo'qligida ifodalangan; operatsion, tashkilotning axborot tuzilmasi kamchiliklari bilan bog'liq[4].

Tahdid tushunchasi. Ma'lumki tahdidlar tabiiy va sun'iy turlarga bo'linadi. Axborot xavfsizligi sohasida tahdidlarni o'rganish juda muhim hisoblanib, mahsus kanallarga bo'ladigan ehtimoliy xavf-xatarlarni bartaraf etish aynan tahdidni aniqlash va uni darajasini to'g'ri baholagan holda ta'sirini kamaytirishga bog'liq.

Tabiiy tahdid tabiat hodisalari tufayli vujudga kelishi ehtimolligi yuqori bo'lgan favqulotda vaziyatni keltirib chiqaradigan jarayon hisoblanadi. Tabiiy xavf manbalari (tashuvchilari) litosfera, gidrosfera, atmosfera va kosmosning turli xil noqulay tabiiy jarayonlar sodir bo'ladigan va xavfli tabiat hodisalarining yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qismlaridir[4].

Bir qarashda mahsus kanallar o'zi himoya qatlamlariga ega bo'lgan tarmoq deb tushuniladi. Aslida ham shunday. Katta tarmoqda alohida mahsus kanallar hosil qilish, ma'lumotlarni kriptografik vositalar yordamida shifrlash, kirishlarda atentifikatsiya usullarini qo'llash, antivirus dasturlari, doimiy nazorat kabi barcha usullar mahsus kanalning muhim elementlari hisoblanadi. Lekin xech qanday to'liq himoya tizimi mavjud bo'lmagandek mahsus kanallar ham to'lig'ligicha xavf-xatarlardan holi emas. Ushbu dissertatsiyani asosiy mazmuni ham aynan o'zining himoya usullariga ega mahsus kanallarga bo'ladigan xavf-xatarlarni aniqlash va ularni bartaraf etishni nazarda tutadi. Mahsu kanallarga quyidagi zaiflik va tahdidlarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

1. Fizik uzulishlar yoki barqarorlikdagi zaiflik. Bunda har qanday kanal qurishda kabel yoki radio-alloqadan foydalanamiz. Bu narsalar eskirishi, uzilishi, xatoliklar keltirib chiqarishi kabi zaifliklar ehtimoli mavjud. Bu o'z navbatida kanallning barqaror ishlashini buzilishi tahdidini keltirib chiqaradi[3].

2. Mantiqiy xatoliklar. Bunda asosan qurilmalarning dasturiy ta'minotidagi buyruq xatoliklari, protokollarni tushunmaslik, dastur yangilanishlari qurilma konfiguratsiyasiga mos kelmasli, shifrlash usullarini kriptotahlilga uchrashi

kabi zaifliklar. Ular esa ma'lumotlar buzilishi, shifrlashda xatolik, ma'lumotarni qayta deshifrlanmasligi, kontrol dasturlari tomonidan bloklanishi kabi tahdidlarni yuzaga chiqaradi[3].

3. Kadrlar muammosi. Sinalmagan yoki kimdir tomonidan josuslikka yollangan hodimlarga tarmoqni ishonib topshirish. Bu esa o'z navbatida ma'lumotlarni qayta yo'naltirish, tarmoqqa xost qo'shish, ximoya tizimlarini o'chirilishi kabi tahdidlarni yuzaga chiqaradi[3].

4. Texnologik muammo. Mahsus kanal qurishda foydalaniladigan mahsus qurilmalar firewalllar, marshrutizatorlar, kommutatorlar, aloqa kabellarni bir-birining standartlariga mos kelmasligi yoki ishlab chiqaruvchisi tomonidan qandaydir ma'lumotlarni qo'ga kiritishda yo'lak qoldirib ketishi tahdidi xam yo'q emas[3].


Mahsus kanallarga bo'ladigan bunday tahdidlar va ular keltirib chiqishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni aniqlash va bartaraf etish uchun birinchi navbatda xavf-xatarlarni baholash va boshqarish talab etiladi. Keyingi bo'limda biz albatta bu jarayonlarni qanday amalga oshirish kerakligi haqida ma'lumot berib o'tgan holda, xavf-xatarlarni baholash usullari orqali ularni baholab chiqamiz.

Xavf-xatar kiberxavfsizlikka oid bo'lgan tushunchalardan biri hisoblanadi. Quyida risk tushunchasi va uni boshqarish bo'yicha batafsil ma'lumotlar keltirilgan. Xavf-xatar kiberxavfsizlik lug'atida "RISK" deb yuritiladi[5].

Risklarni baholash bosqichida tashkilotdagi risklarga baho beriladi va bu risklarning ta'siri yoki yuzaga kelish ehtimoli hisoblanadi. Risklarni baholash - uzluksiz davom etuvchi jarayon riskka qarshi kurashish rejalarini amalga oshirish uchun imtiyozlarni belgilaydi. Risklarni baholash ularning miqdoriy va sifatii qiymatini aniqlaydi. Har bir tashkilot risklarni aniqlash, daraj alarga ajratish va yo'q qilish uchun o'zining riskni baholash jarayonini qabul qilishi kerak. Risklarni baholashda statik va analik usullar mavjud bo'lib, ularni hodisalar daraxti usuli, galustik-babochka usuli, emprimik usul, anologdan foydalanish usuli, foyda-xarajat tahlili usuli, sezgirlik tahlili[5] kabi usullarni misol keltirishimiz mumkin.

Bizni holatda risklarni tahlil qilishda galustik babochka usuli yordamida baholashimiz mumkin. Agar maxsus kanalni tabiiy yoki sun'iy tahdidlar

natijasida tarmoqdan uzilib qolishini xisobga olsak asosiy xavf-xatarlarni "Tarmoqdan uzilish" sifatida ko'rishimiz mumkin. Agar tarmoqda uzilish xavf-xatari vujudga kelsa qabul qiluvchi va jo'natuvchi tomonlar o'rtasida "aloqada uzulishi", korxonada tashkilotlarning mijozlarini tarmoq orqali xizmat qabul qilolmasligi tufayli "xizmatdan bosh tortish", asosiy hamkorlarni yo'qotish natijasida "bankrotlik" kabi salbiy oqibatlarni yuzaga chiqarishi mumkin. 1-rasmda "Tarmoqdan uzilish" tahdidi mavjud bo'lganda, tahdid xavf-xatarga yetguncha ularni bartaraf etish usullari, xavf-xatar amalga oshganda esa oqibatni yumshatish bo'yicha usullar tahlili keltirib o'tilgan. Natijada esa maxsus kanalni barqaror ishlashini ta'minlashga erishilishi mumkin.



1-rasm. Xavf-xatarlarni tahlil qilishda "Tarmoqdan uzilish" riskini Galstuk-babochka usuli yordamida baholash.

Muhokama. Demak oldin aytilganidek mahsus kanallarda ham zaifliklar mavjud, zaifliklar tahdidni keltirib chiqaradi, tahdid esa xavf-xatarlarni, xavf-xatar zararli oqibatni. Bu zanjir to xavf-xatarga yetguncha biz xavflarni oldini olish usullarini ishlab chiqishimiz, bu usullar hujumlarga bardosh bermagan holda oqibatni yani zararni yumshatish usullarini ishlab chiqishimiz zarur ekan. Kompyuter tarmoqlarida mahsus kanal qurish VPN texnologiyasi (IPSec, L2TP protokollari, Xeshlash) usullari yordamida amalga oshirishini hisobga olsak. Yuqorida keltirib o'tilgan hamda o'rganilgan tahlillar asosida magisterlik dissertatsiyasini asosi sifatida quyidagi qo'shimcha va yangi usullarni VPN bilan birgalikda foydalanishni tavsiya etaman.

1. Tabiiy xavf-xatarlar uchun:

- Mahsus kanalda STP protokolini qo'llagan holda zaxira kanallarini hosil qilish[1]. Bunda tabiiy

hodisalar tufayli tarmoq kanallarida uzulish bo'lganda avtomatik ravishda zaxira kanalidan foydalanish ta'minlanadi;

- LACP protokoli yordamida kanalni agregatlash[1]. Bunda mahsus kanalda axborot oqimini sekinlashish hodisasi oldi olinib, kanaldagi axborot tez almashinishi ta'minlanadi.

2. Sun'iy xavf-xatarlar uchun:

- Autentifikatsiya uchun AAA (authentifikatsion, authorization, accounting) usulini Radius serverida qo'llash. Bunda korxonaning bir hodimi uchun avtorizatsiyadan o'tishda alohida identifikator va autentifikator berilishi nazarda tutiladi. Biror xavf-xatar sodir bo'lganda aynan qaysi hodimni login, paroli yordamida hodisa sodir bo'lganini aniqlash imkoniyati mavjud bo'ladi.

- SNMP (Simple Network Management Protocol) protokoli yordamida barcha hodisalarni log fayllarini ichki serverga qayt etib borish[1]. Bunda xavf-xatarlarni tahlil qilish tarmoq administratorlariga qulaylik yaratadi.

- DHCP SNOOPING xavfsizlik sozlamalarini o'rnatish. Bunda korxonani ichki tarmoqlaridagi qurilmalar buzg'unchi tomonidan sohta ip manzillar berilishi xavf-xatari oldi olinadi.

- ARP spoofingga qarshi anti ARP spoofing va ARP anti-flood xizmatlarini o'rnatish. Bunda buzg'unchi tomonidan kanalda yuboriladigan sohta so'rovlar (DDOS hujumi) natijasida qurilmalarni kanalda axborot oqimini toshishi hodisasi oldi olinadi.

- ASA xavfsizlik devorini (firewall) o'rnatish. Bunda mahsus kanalga bo'ladigan tashqi va ichki tahdidlar oldi olinadi. Mahsus kanallarda axborotlarni kirishi va chiqishiga nazorat o'rnatiladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda maxsus axborot almashuv kanallari ham xavf-xatarlarga qarshi yuqori darajadagi himoyani ta'minlay olmaydi. Maqolada takidlab o'tilganidek xar qanday xavfsizlik tizimlarining o'ziga yarasha zaiflik tomonlari mavjud bo'ladi. Axborot xavfsizligi mutaxassisi xavf-xatarlarga qarshi chora-tadbirlar ishlab chiqishda birinchi navbatda xavf-xatarni aniqlash va uni to'g'ri baholay olishi zarur. Agar yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni to'g'ri tahlil qilinishiga erishilsa, ularni bartaraf etish usullarini ham qo'llay oladi. Ushbu maqolada maxsus kanallarda asosan tabiiy yoki sun'iy tahdidlar tufayli yuzaga kelishi mumkin bo'lgan "Tarmoqdan uzilish" xavfi tahlil qilinib, baholash usuli keltirib o'tilgan. Xavf-xatarni

baholashdan olingan natijaga ko'ra tarmoq xavfsizligi protokollari va texnologiyalarini ketma-ketlikda qo'llash bo'yicha yangi usul taklif etilgan.

Taklif etiladigan usullarni mahsus kanallarga qo'llash korxonada xarajati o'sishiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi. Ammo usullarni qo'llash va doimiy nazorat qilish uchun alohida xavfsizlik mutaxassisi jalb qilinishi maqsadga muvofiq sanaladi.

Ushbu maqola materiallaridan mavzu mazmuni bo'yicha ilmiy izlanuvchilari o'z ilmiy ishlarida iqtibos keltirgan holda foydalanishlari mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- [1]. R.X. DJURAYEV, SH.YU. DJABBAROV, B.M. UMIRZAKOV "TARMOQ PROTOKOLLARI", o'quv qo'llanma, Toshkent-2018.
- [2]. M.S.Yakubov, F.M.Muxtarov., "ЦИФРОВАЯ ДИПЛОМАТИЯ-ПРИОРИТЕТНЫЙ ФАКТОР ФОРМИРОВАНИЯ МЕЖГОСУДАРСТВЕННЫХ ОТНОШЕНИЙ", НАУЧНЫЕ РАЗРАБОТКИ: ЕВРАЗИЙСКИЙ РЕГИОН 2017,.
- [3]. F.Muxtorov, A.Umarov, A.Ro'zaliyev "AXBOROT TIZIMLARIDA XAVFSIZLIK TAHIDLARINING TASNIFI", "Engineering problems and innovations" ilmiy jurnali
- [4]. Dostonbek T., Jamshid M. Use of Artificial Intelligence Opportunities for Early Detection of Threats to Information Systems //Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science. – 2023. – T. 4. – №. 4. – C. 93-98.
- [5]. MIRZAYEV J. B., TOJIMATOV D. H. O. G. L. I. KIBERXAVFSIZLIKNI TA'MINLASH, KIBERHUJUMLARNI OLDINI OLISH BO'YICHA DAVLAT SIYOSATI YURITILISHI //ИНТЕРНАУКА Учредители: Общество с ограниченной ответственностью "Интернаука". – С. 36-37.
- [6]. Muxtorov F. M. et al. AXBOROT XAVFSIZLIGI XAVFLARINI TAHLIL QILISH UCHUN IERARXIK AKTIVLARNI BAHOLASH USULI //INTERNATIONAL CONFERENCES. – 2022. – T. 1. – №. 4. – C. 76-80.
- [7]. Kamolovich B. E. TARMOQLARDA UZATILADIGAN MA'LUMOTLARNI XATOLIKLARINI BARTARAF ETISH USULLARI //Scientific Impulse. – 2022. – T. 1. – №. 4. – C. 1637-1640.

0-TARTIBLI BIR JINSLI FUNKSIONALLAR KO‘RINISHIDAGI SODDA MEZONLAR UCHUN I INFORMATIV BELGILAR MAJMUASINI ANIQLASH USULLARI

Asrayev Muhammadmullo Abdullajon o‘g‘li,

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Farg‘ona filiali

“Dasturiy injiniring” kafedrasida katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ma’lumotlar tahlilini rivojlantirish ma’lumotlarni qayta ishlash masalalarining ma’lum bir sinfini yechishga mo‘ljallangan matematik usullar, algoritmlar va dasturlarni ishlab chiqish orqali amalga oshiriladi. Masalan, klasterizatsiya, klassifikatsiya, informativ belgilarni ajratish, belgilarning o‘zaro bog‘liqligini aniqlash va boshqalar.

Kalit so‘zlar: 0-tartibli bir jinsli funktsionallar, informativ belgilar, mezonlar, Yevklid, tartiblash.

Kirish. Taklif etilgan mezonlar, usullar va algoritmlarni keltirishdan oldin zarur bo‘lgan asosiy tushuncha va belgilashlarni keltirib o‘tamiz.

Quyida ko‘rib chiqiladigan informativlik mezonlari evristik mezonlar bo‘lib, ular Yevklid metrikasidan foydalangan holda berilgan o‘quv tanlanmasi ob‘yektlarni ajratishga asoslanadi.

Sodda ko‘rinishdagi informativlik mezoni asosida informativ belgilar majmuasini aniqlashning juda ko‘p usullari ishlab chiqilgan. Shulardan biri «Tartiblash» usuli bo‘lib, bu usul har doim ham mazkur mezonga nisbatan optimal yechimni ta’minlamaydi[1].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ushbu maqolada A.L.Gorelik, M.M.Komilov, Sh.X.Fozilov, A.X.Nishonov ishlarida kiritilgan asosiy tushuncha va belgilashlardan dissertatsiya ishini nazariy qismini bayon etishda foydalanilgan.

Masalan: $a = (5, 10, 10, 1)$, $b = (1, 50, 50, 19)$ va $N = 4$, $\ell = 2$ uchun optimal yechim $\lambda = (1, 0, 0, 1)$ vektor bo‘lib, $\lambda = (1, 1, 0, 0)$ vektor optimal yechim emas.

[1] ishda «Tartiblash» usulining optimallik shartlari keltirilgan uning qisqacha bayoni bilan quyida tanishamiz.

Quyidagi optimallashtirish masalasini ko‘raylik:

$$\begin{cases} I(\lambda) = \frac{(a, \lambda)}{(b, \lambda)} \rightarrow \max, \\ \lambda \in \Lambda^l, \lambda_i = \{0, 1\}, i = \overline{1, N}, \\ a, b \in R^N, a_i \geq 0, b_i > 0, i = \overline{1, N}, \end{cases} \quad (2.1)$$

bu yerda $\Lambda^l - l$ o‘lchovli informativ belgilar fazosi:

$$\Lambda^l = \left\{ \lambda \mid \lambda_i = \{0, 1\}, i = \overline{1, N}, \sum_{i=1}^N \lambda_i = l \right\}.$$

Faraz qilaylik, a va b vektorlar komponentalariga nisbatan mos ravishda quyidagicha tartiblangan bo‘lsin:

$$\frac{a_1}{b_1} \geq \frac{a_2}{b_2} \geq \dots \geq \frac{a_N}{b_N}. \quad (2.2)$$

Optimal yechimni topishda zarur bo‘ladigan quyidagi ma’lumotlar kiritiladi[2].

$$\forall a, b \text{ va } c \geq 0, d > 0 (a + c \geq 0, b + d > 0)$$

haqiqiy sonlar uchun quyidagi lemmalardan biri o‘rinli:

1-Lemma. Agar $\begin{cases} a > 0 \\ b > 0 \end{cases}$ bo‘lib, $\frac{c}{d} > \frac{a}{b}$ bo‘lsa, u

holda $\frac{a}{b} < \frac{a+c}{b+d} < \frac{c}{d}$ bo‘ladi.

2-Lemma. Agar $\begin{cases} a > 0 \\ b > 0 \end{cases}$ bo'lib, $\frac{c}{d} < \frac{a}{b}$ bo'lsa, u

holda $\frac{a}{b} > \frac{a+c}{b+d} > \frac{c}{d}$ bo'ladi.

3-Lemma. Agar $\begin{cases} a < 0 \\ b < 0 \end{cases}$ bo'lib, $\frac{c}{d} < \frac{a}{b}$ bo'lsa, u

holda $\frac{a}{b} > \frac{a+c}{b+d} < \frac{c}{d}$ bo'ladi.

4-Lemma. Agar $\begin{cases} a < 0 \\ b < 0 \end{cases}$ bo'lib, $\frac{c}{d} > \frac{a}{b}$ bo'lsa, u

holda $\frac{a}{b} < \frac{a+c}{b+d} > \frac{c}{d}$ bo'ladi.

5-Lemma. Agar $\begin{cases} a \geq 0 \\ b \leq 0 \end{cases}$ bo'lsa, u holda

$\frac{a+c}{b+d} \geq \frac{c}{d}$ bo'ladi.

6-Lemma. Agar $\begin{cases} a \leq 0 \\ b \geq 0 \end{cases}$ bo'lsa, u holda

$\frac{a+c}{b+d} \leq \frac{c}{d}$ bo'ladi.

$$A = \sum_{i=1}^l a_i, B = \sum_{i=1}^l b_i, \begin{cases} \Delta a_{ij} = a_j - a_i \\ \Delta b_{ij} = b_j - b_i, i = \overline{1, l}, j = \overline{l+1, N} \end{cases}$$

$$\lambda^0 = \left(\underbrace{1, 1, \dots, 1}_{l \text{ marta}}, \underbrace{0, 0, \dots, 0}_{N-l \text{ marta}} \right).$$

belgilashlarni kiritish orqali yuqoridagi lemmalarda $a = \Delta a_{ij}, b = \Delta b_{ij}, c = A, d = B$ deb olinsa,

u holda $\forall i, j (i = \overline{1, l}, j = \overline{l+1, N})$ lar uchun $\begin{cases} A + \Delta a_{ij} \geq 0, \\ B + \Delta b_{ij} > 0 \end{cases}$

bo'lib, yuqoridagi lemmalardan biri o'rinli bo'ladi[3].

1-Teorema. Tartiblangan (2.2) ketma-ketlik

yordamida tanlab olingan $\lambda^0 = \left(\underbrace{1, 1, \dots, 1}_{l \text{ marta}}, \underbrace{0, 0, \dots, 0}_{N-l \text{ marta}} \right)$ vektor

(2.1) masalaning optimal yechim bo'lishi uchun 2-lemma va 4-lemma shartlarini qanoatlantiruvchi $a = \Delta a_{ij}, b = \Delta b_{ij}$ larning mavjud bo'lmashligi zarur va

yetarli.

Agar (2.2) ketma-ketlik yordamida olingan λ vektor (2.1) masalaning yechimi bo'lmasa, u holda (2.1) masalaning optimal yechimini aniqlash uchun 2- va 4-lemmalar asosida almashtirishlar bajariladi. Almashtirish jarayoni 2- va 4-lemmalar shartlarini qanoatlantiruvchi Δa_{ij} va Δb_{ij} mavjud bo'lmashlik sharti bajarilmaguncha davom ettiriladi. Agar Δa_{ij} va Δb_{ij} 2- va 4-lemmalar shartlarini qanoatlantiruvchi Δa_{ij} va Δb_{ij} qolmasa, 1-teorema natijasiga ko'ra hosil qilingan yechim optimal.

Mazkur usulda funksionalning qiymati va λ vektorning komponentlari lemmalar asosida quyidagicha shakllantiriladi.

Δa_{ij} va Δb_{ij} lar uchun 2-yoki 4-lemmalardan biri o'rinli bo'lsin. U holda lemmalar natijasiga ko'ra $\frac{A + \Delta a_{ij}}{B + \Delta b_{ij}} > \frac{A}{B}$ bo'lib, λ vektorning i - va j -komponentlari qiymatlari o'zaro almashtiriladi va funksionalning λ ga mos qiymati $\frac{A + \Delta a_{ij}}{B + \Delta b_{ij}}$ ga teng bo'ladi.

Ushbu usulga asoslangan algoritmnı A_1 orqali belgilab olamiz va u quyidagi qadamlardan tashkil topadi.

1-qadam. $\lambda = \{ \underbrace{1, 1, \dots, 1}_l, 0, 0, \dots, 0 \}$ deb olinadi.

2-qadam. A va B larning qiymatlari hisoblanadi, ya'ni $A = (a, \lambda), B = (b, \lambda)$.

3-qadam. $i = 1, j = N; A_1 = A, B_1 = B$.

4-qadam. Δa_{ij} va Δb_{ij} larning qiymatlari hisoblanadi.

5-qadam. 4-lemma shartlari tekshiriladi. Agar Δa_{ij} va Δb_{ij} 4-lemma shartlarini qanoatlantirsa, lemma natijasi asosida almashtirishlar bajariladi, ya'ni λ vektorning i - va j -komponentlari qiymatlari o'zaro almashtiriladi va $A = A + \Delta a_{ij}, B = B + \Delta b_{ij}$ hisoblanib 7-qadamga aks holda navbatdagi qadamga o'tiladi[4].

6-qadam. 2-lemma shartlari tekshiriladi. Agar Δa_{ij} va Δb_{ij} 2-lemma shartlarini qanoatlantirsa, lemma natijasi asosida almashtirishlar bajariladi, ya'ni λ vektorning i - va j -komponentlari qiymatlari o'zaro almashtiriladi va $A = A + \Delta a_{ij}, B = B + \Delta b_{ij}$ hisoblanadi va navbatdagi qadamga o'tiladi.

7-qadam. $j > \ell$ shart tekshiriladi. Agar $j > \ell$ bo'lsa, $j = j - 1$ va 4-qadamga o'tiladi aks holda navbatdagi qadamga o'tiladi.

8-qadam. $i < \ell$ shart tekshiriladi. Agar $i < \ell$ bo'lsa, $i = i + 1$ va 4-qadamga o'tiladi aks holda navbatdagi qadamga o'tiladi.

9-qadam. $A_1 = A$ va $B_1 = B$ shartlar tekshiriladi. Agar $A_1 = A$ va $B_1 = B$ bo'lsa, λ optimal yechim va jarayon to'xtatiladi, aks holda 3-qadamga o'tiladi.

Keltirilgan usul 3-teorema asoslangan bo'lib, belgilashlarda Δa_{ij} va Δb_{ij} lar kiritilgani uchun mazkur usulni "Delta-1" usuli deb atalgan.

Umuman olganda, 3-teorema "tanlov"ga asoslangan usullardan olingan natijalarning optimalligini aniqlash imkonini beradi.

Juda ko'p hollarda dastlab olingan vektor (2.1) masalaning optimal yechimi bo'lishi mumkin. Quyida keltiriladigan teorema orqali dastlab tanlab olingan vektorning (2.1) masalaning qachon optimal yechim ekanligini aniqlash imkoni paydo bo'ladi.

$\forall \lambda \in \Lambda'$ tanlangan bo'lsin.

2-teorema. Tanlangan λ vektor (2.3) masalaning optimal yechimi bo'lishi uchun 2-lemma, 4-lemma va 5-lemma shartlarini qanoatlantiruvchi $a = \Delta a_{ij}$ va $b = \Delta b_{ij}$ ($i = \overline{1, l}, j = \overline{l+1, N}$) larning mavjud bo'lmazligi zarur va yetarli.

λ vektor (2.4) masalaning yechimi bo'lmasa, u holda 2-, 4- va 5-lemmalar asosida almashtirishlar bajaramiz. Almashtirish jarayoni 2-, 4- va 5-lemmalar shartlarini qanoatlantiruvchi Δa_{ij} va Δb_{ij} mavjud bo'lmaguncha davom ettiriladi. Agar Δa_{ij} va Δb_{ij} 2-, 4- va 5-lemmalar shartlarini qanoatlantiruvchi Δa_{ij} va

Δb_{ij} mavjud bo'lmasa, 4-teorema natijasiga ko'ra hosil qilingan yechim optimal.

Mazkur usulda funksionalning qiymati va λ vektorning komponentalari quyidagicha shakllantiriladi[5].

Faraz qilaylik, Δa_{ij} va Δb_{ij} lar uchun 2-yoki 4-yoki 5-lemmalardan biri o'rinli bo'lsin. U holda lemmalar natijasiga ko'ra $\frac{A + \Delta a_{ij}}{B + \Delta b_{ij}} > \frac{A}{B}$ bo'ladi. λ vektorning i - va j - komponentlari qiymatlari o'zaro almashtiriladi.

Almashtirish jarayoni 3-teorema shartlarini qanoatlantirilguncha davom ettiriladi.

Natijalar. Mazkur usulni "Delta-2" usuli deb atalgan, bu usulga mos algoritm A_2 orqali belgilab olamiz va u quyidagi qadamlardan iborat.

1-qadam. $\lambda = \{1, 1, \dots, 1, 0, 0, \dots, 0\}$ deb olinadi.

2-qadam. A va B larning qiymatlari hisoblanadi, ya'ni $A = (a, \lambda), B = (b, \lambda)$.

3-qadam. $i = 1, j = N; A_1 = A, B_1 = B$ deb olinadi.

4-qadam. Δa_{ij} va Δb_{ij} larning qiymatlari hisoblanadi.

5-qadam. 4-lemma shartlari tekshiriladi. Agar Δa_{ij} va Δb_{ij} 4-lemma shartlarini qanoatlantirsa, bu lemma natijasi asosida λ vektorning i - va j -komponentlari qiymatlari o'zaro almashtiriladi va $A = A + \Delta a_{ij}, B = B + \Delta b_{ij}$ hisoblanib va 8-qadamga o'tiladi, aks holda navbatdagi qadamga o'tiladi.

6-qadam. 2-lemma shartlari tekshiriladi. Agar Δa_{ij} va Δb_{ij} 2-lemma shartlarini qanoatlantirsa, bu lemma natijasi asosida λ vektorning i - va j -komponentlari qiymatlari o'zaro almashtiriladi va $A = A + \Delta a_{ij}, B = B + \Delta b_{ij}$ hisoblanib va 8-qadamga o'tiladi, aks holda navbatdagi qadamga o'tiladi.

7-qadam. 5-lemma shartlari tekshiriladi. Agar Δa_{ij} va Δb_{ij} 5-lemma shartlarini qanoatlantirsa, bu lemma natijasi asosida λ vektorning i - va j -

komponentlari qiymatlari o‘zaro almashtiriladi va $A = A + \Delta a_{ij}, B = B + \Delta b_{ij}$ hisoblanib va 8-qadamga o‘tiladi, aks holda navbatdagi qadamga o‘tiladi.

8-qadam. $j > \ell$ shart tekshiriladi. Agar bo‘lsa, $j = j - 1$ va 5-qadamga, aks holda navbatdagi qadamga o‘tiladi.

9-qadam. $i < \ell$ shart tekshiriladi. Agar $i < \ell$ bo‘lsa, $i = i + 1$ va 5-qadamga, aks holda navbatdagi qadamga o‘tiladi.

10-qadam. $A_1 = A$ va $B_1 = B$ shartlar tekshiriladi. Agar $A_1 = A$ va $B_1 = B$ bo‘lsa, λ optimal yechim va jarayon to‘xtatiladi, aks holda 3-qadamga o‘tiladi.

2-teoremaning yana bir o‘ziga xos xususiyati sodda mezon asosida informativ belgilar fazosini shakllantirishdan olingan natijalarni optimalligini tekshirishida bo‘lsa, uning yordamida yaratilgan usul boshqa usullardan olingan suboptimal yechimdan foydalanib tezkorlik bilan optimal yechimga erishish imkonini beradi.

Xulosa. 0-tartibli bir jinsli funksional ko‘rinishidagi mezonlar uchun optimallik shartlari aniqlandi va “Delta-2” usuli taklif etildi, dastlab olingan yechimning 0-tartibli bir jinsli funksional ko‘rinishidagi mezonlarga nisbatan optimallik shartlari aniqlandi va “Delta-3” usuli taklif etildi va umumiy 0-tartibli bir jinsli funksional ko‘rinishidagi mezon asosida informativ belgilar to‘plamini aniqlashning “Delta-4” usuli yaratildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Раудис Ш.Ю. Ошибки классификации при выборе признаков // Статические проблемы управления. – Вильнюс, 1979. вып. 38. – с. 9-25.

2. Ту Дж., Гонсалес Р. Принципы распознавания образов // М.: Мир, 416 с.

3. Турбович И.Т., Гитис В.Г., Маслов В.Г. Опознание образов. – М.: Наука, 1971. –246 с.

4. Фазылов Ш.Х., Маматов Н.С. Градиентный метод для формирования пространства информативных признаков на основе

однородного критерия с положительной степенью // Доклады Академии Наук Республики Узбекистан. 2008. №2. -С. 20-22.

5. Фазылов Ш.Х., Маматов Н.С., Информатив белгилар fazosini kurişda «Делталар» усули // Узб. Журнал «Проблемы информатики и энергетики». Ташкент, 2005. №6. С. 11-16.

BERILGAN TASVIR SIFATINI BAHOLASH

Dadaxonov Musoxon Xoshimxonovich,
Namangan davlat universiteti "Informatika" kafedrasini mudiri
dotsent t.f.f.d., PhD.

Asrayev Muhammadmullo Abdullajon o'g'li,
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Farg'ona filiali
"Dasturiy injiniring" kafedrasini katta o'qituvchisi.

Annotatsiya: Qo'lyozma matn tasvirlarini tahlil qilish tizimlarini ishlab chiqishda dastlab berilgan tasvir sifatini baholash talab etiladi. Odatda tasvir sifatini baholash uning gistogrammasi orqali amalga oshiriladi va u yetarlicha aniq ifodalanishi mumkin, biroq bu usul orqali sifat ko'rsatkichlarini miqdoriy qiymatlarda ifodalab bo'lmaydi. Tasvir sifatini miqdoriy baholash vazifasi ancha murakkab va kompleks vazifa bo'lib, u shubhasiz tasvirlarga dastlabki ishlov berish algoritmlarini to'g'ri strategiyasini tuzish imkonini beradi. Bu esa chiqishda tahlil uchun nisbatan yuqori sifatli tasvirni ta'minlaydi.

Kalit so'zlar: qo'lyozma matn, tasvir, ravshanlik, yorqinlik, chegara, shovqin, gradiyent, kontrast

Kirish. Raqamli tasvirlar sifatini baholash usullari mos ravishda etalonli va etalonsiz turlarga ajratiladi. Birinchi guruh usullari tekshiriladigan tasvirni oldindan berilgan parametrlari bo'yicha etalon tasvir bilan taqqoslashga asoslanadi. Yechilayotgan masalaning o'ziga xos xususiyatlari sababli, berilgan qo'lyozma matni tasviri sifatini baholash uchun ushbu guruh usullaridan foydalanib bo'lmaydi. Ikkinchi guruh usullari ravshanlik, ranglarni keskin o'zgarishi, yorqinlik va xalaqit darajasi kabi parametrlar bo'yicha yagona tasvirni miqdoriy baholashga asoslangan.

Tasvir ravshanligi sifatning asosiy ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, u orqali tasvirni navbatdagi ishlov berish uchun yaroqlilik darajasini aniqlash mumkin. Ravshanlik tasvir qismlari ko'rinishini tavsiflaydi va mos ishlov berish ravshanlikni sezilarli darajada yaxshilashi mumkin, garchi u tasvirni kattalashtirish va ko'rish masofasi bilan cheklangan bo'lsada. Shuningdek, ravshanlik orqali tasvirni har xil yorqinligi bilan ikkita qo'shni sohasi orasidagi chegarani chaplanganlik darajasi sifatida aniqlanishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.
O'zbekistonda tasvirlarga ishlov berish va timsollarni


tanib olishning nazariy asoslarini rivojlantirishga M.M.Kamilov, E.M.Aliyev, Sh.X.Fozilov, N.A.Ignatyev, Sh.F.Madraximov, N.M.Mirzayev, S.S.Sodiqov, Sh.Ye.Tulyaganov va boshqalar katta hissa qo'shib kelmoqdalar.

Odatda, ravshanlik o'lchovi tasvir yorqinligi o'zgarishini ushbu o'zgarish sodir bo'ladigan qism uzunligiga nisbati sifatida baholanadi:

$$S = \frac{\Delta I}{w},$$

bu yerda ΔI – yorqinlikning o'zgarishi, w – o'tish kengligi.

Agar tasvir yorqinligini o'qqa nisbatan joylashuv funksiyasi sifatida ifodalasak, u holda aniq ravshanlik qiya burchakning tangensi sifatida ifodalanadi (1-rasm).



1-rasm. Ravshanlikni qiya burchak tangensi sifatida ifodalanishi

Chegara bu gradiyent modulining eng katta qiymati degan taxminga asoslanib, potensial o'tish chegarasini aniqlash uchun chegaralarni aniqlashning Kanni usuli qo'llaniladi. Chegaralarni aniqlash algoritmi tekislangan tasvir gradiyentini hisoblash bilan cheklanmay, balki chegara konturda faqat tasvir gradiyentining maksimal nuqtalari qoldirish va chegara yonida joylashgan maksimal bo'lmagan nuqtalar o'chirishni ham amalga oshiradi. Bunda ikki bo'sag'a yordamida kuchsiz chegaralar o'chiriladi. Chegara qismlariga bir butun sifatida ishlov beriladi. Agar kuzatilgan fragmentning biror bir joyida gradiyent qiymati yuqori bo'sag'adan oshib ketsa, u holda gradiyent qiymati yuqori bo'sag'adan kichik bo'lgan joylarda bu fragment gradiyent qiymati quyi bo'sag'adan kichik bo'lguncha mumkin bo'lgan chegara sifatida qoldiriladi. Agar butun fragmentda yuqori bo'sag'a qiymatidan kattaroq nuqtalar bo'lmasa, u o'chiriladi[1]. Ushbu kechikish chiquvchi chegaralaridagi uzilishlar sonini kamaytirish imkonini beradi.

Kanni algoritmiga shovqinni kamaytirishni qo'shilishi bir tomondan natijalar turg'unligini ta'minlasa, ikkinchi tomondan hisoblash sarflarini oshiradi va buzilishlarga, hattoki chegaralar to'liqligini yo'qolishiga olib keladi. Barcha chegaralar aniqlangandan so'ng, chegaraga tegishli har bir piksel uchun gradiyent yo'nalishi hisoblanishi zarur, bu Sobel operatori yordamida amalga oshirilishi mumkin, u tasvir yorqinlik gradiyentini tasvirning har bir nuqtasida hisoblanadi. Shu tarzda yorqinlikning eng katta o'sish yo'nalishi va uning bu yo'nalishdagi o'zgarishi kattaligi aniqlanadi. Natija har bir nuqtada tasvir yorqinligini qanchalik keskin yoki ravon o'zgarishini ko'rsatadi, bu esa chegarada nuqtani topish ehtimoligini va chegara yo'nalishini anglatadi. Amalda yorqinlik o'zgarishi miqdorini hisoblash (yuzaga tegishli bo'lish ehtimollik) yo'nalishni hisoblashdan ko'ra ishonchli va talqin qilinishi oson hisoblanadi[2].

Matematik jihatdan tasvirning har bir nuqtasi uchun ikki o'zgaruvchili funksiya gradienti ikki

o'lovli vektor bo'lib, uning komponentalari gorizontal va vertikal chiziqlar bo'yicha tasvir yorqinligi hosilalari hisoblanadi. Tasvirning har bir nuqtasida gradiyent vektori yorqinlikni eng katta o'sishi tomon yo'naltirilgan va uning uzunligi yorqinlik o'zgarishi kattaligiga mos keladi. Bu Sobel operatori doimiy yorqinlik sohasidagi nuqtada nol vektor va har xil yorqinlikdagi sohalar chegarasida yotgan nuqtada – yorqinlikni oshirish yo'nalishi bo'yicha chegarani kesib o'tuvchi vektor bo'lishini bildiradi.

Gradiyent yo'nalishi atrofidagi chegaraning har bir shunday pikseliga ma'lum bir atrof uchun yorqinlikni maksimal va minimal qiymatlarini topish kerak. Odatda butun tasvir bo'yicha ravshanlikning o'rtacha qiymati butun tasvir uchun ravshanlik o'lovchi sifatida olinadi[3].

Tasvir yorqinligini barcha piksellar o'rtacha yorqinligi sifatida ifodalash mumkin (ehtimollar nazariyasi nuqtai nazaridan matematik kutilma):

$$Y_{av} = \frac{1}{M \cdot N} \sum_{x=1}^M \sum_{y=1}^N 0.299 \cdot R(x, y) + 0.587 \cdot G(x, y) + 0.114 \cdot B(x, y).$$

Yorqinlik qiymatini maksimal yorqinlik qiymatiga bo'lish orqali nisbiy qiymatlarga o'tish mumkin:

$$Y_r = \frac{Y_{av}}{Y_{max}}.$$

Y_r ning qiymati [0,1] oralig'ida bo'lib, bunda uning 0 qiymati butunlay qora tasvirga, 1 qiymati esa butunlay oq tasvirga mos keladi. Tasvir optimal yorqinligi Y_r qiymatiga ega bo'lib, u 0,5 ga yaqin bo'lishi kerak[4].

Tasvir kontrastligi ikki xil bo'ladi, ya'ni yorqinli va tusli (tonli). Yorqinli kontrast – bu tasvirning alohida qismlarini fizik yoki ko'rinuvchan yorqinligi o'rtasidagi farqdir. Umuman olganda, fizik yoki ko'rinuvchan yorqinlikni hisoblash rangli tasvirni axromatik ranglarga aylantirish deb qarash mumkin. Shuning uchun yorqinli kontrast – bu axromatik ranglarga keltirilgan tasvirni ikki maydonini taqqoslashdir.

Agar RGB gistogrammalarini tahlili asosida kontrastli tasvirdagi qoramtir va yorqin piksellar soni taxminan bir xil bo'lishini, ularni yorqinligidagi farq katta va piksellarning asosiy to'planish joyi oraliq chegaralari yaqinida bo'lishini ko'rish mumkin[5].

Yorqinlik kontrastini baholash uchun yaxshi mezon tasvir piksellarining yorqinligi dispersiyasi hisoblanadi:

$$\sigma^2 = \frac{1}{M \cdot N} \sum_{x=1}^M \sum_{y=1}^N (Y_{av} - Y(x, y))^2.$$

Yorqinlik kontrastini baholashning universal o'lchovsiz mezoni – bu o'rtacha kvadrati og'ishning maksimal yorqinlik qiymatiga nisbatidir:

$$C = \frac{2\sigma}{Y_{max}}.$$

Bunda C ning qiymati [0, 1] oralig'ida bo'ladi va 0 qiymat monoton tasvirga, 1 qiymat esa eng yuqori kontrastga to'g'ri keladi. Optimal kontrast qiymati tasvirda aks etgan ob'jekt turiga bog'liq.

Nisbatan murakkab holatni tusli kontrast ifodalaydi. Kulrang tusga o'tkazilganda yorqinlik bir xil bo'lishi mumkin, ammo ko'rish orqali u aniq ajratiladi.

Butun tasvir uchun pikselning «o'rtacha tus»ini o'rtacha qiymatlar orqali ifodalash mumkin:

$$R_{av} = \frac{1}{M \cdot N} \sum_{x=1}^M \sum_{y=1}^N R(x, y);$$

$$G_{av} = \frac{1}{M \cdot N} \sum_{x=1}^M \sum_{y=1}^N G(x, y);$$

$$B_{av} = \frac{1}{M \cdot N} \sum_{x=1}^M \sum_{y=1}^N B(x, y).$$

Tasvir piksellari va «o'rtacha tus» orasidagi masofa quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$d(x, y) = \sqrt{(R_{av} - R(x, y))^2 + (G_{av} - G(x, y))^2 + (B_{av} - B(x, y))^2}$$

Tasvir tusli kontrastini baholash uchun piksellari va «o'rtacha tus» orasidagi o'rtacha masofadan foydalanish mumkin:

$$d_{av} = \frac{1}{M \cdot N} \sum_{x=1}^M \sum_{y=1}^N d(x, y).$$

R_{max} , G_{max} yoki B_{max} (RGB-kub qirrasini uzunligi) masofada joylashgan piksellar yaxshi tusli kontrastga ega bo'ladi:

$$d_{av} \geq R_{max}.$$

Berilgan qo'lyozma tasviridagi xalaqit va chaplanish darajasini baholash uchun haqiqiy sahnalarni statistik tahliliga asoslangan BRISQUE algoritmidan foydalaniladi [72].

Natijalar. BRISQUE algoritmi quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1-bosqich. Mazkur bosqichda MSCN koeffitsiyentlarini hisoblanadi.

$$\hat{I}(i, j) = \frac{I(i, j) - \mu(i, j)}{\sigma(i, j) + C}$$

bu yerda

$$\mu(i, j) = \sum_{k=-K}^K \sum_{l=-L}^L w_{k,l} I(i+k, j+l);$$

$$\sigma(i, j) =$$

$$\sqrt{\sum_{k=-K}^K \sum_{l=-L}^L w_{k,l} [I(i+k, j+l) - \mu(i, j)]^2};$$

$$H(i, j) = \hat{I}(i, j) \hat{I}(i, j+1);$$

$$V(i, j) = \hat{I}(i, j) \hat{I}(i+1, j);$$

$$D1(i, j) = \hat{I}(i, j) \hat{I}(i+1, j+1);$$

$$D2(i, j) = \hat{I}(i, j) \hat{I}(i+1, j-1).$$

2-bosqich. Ushbu bosqichda belgilar vektorini hisoblanadi.

| Belgilar | Belgining tavsifi | Hisoblash prosedurasi |
|----------|-----------------------------------|---|
| $f1-f2$ | Shakl va dispersiya | Umumlashgan normal taqsimotni \hat{I} ga kyeltirish |
| $f3-f6$ | Shakl, o'rta, chap va o'ng og'ish | Assimetrik normal taqsimotni H ga keltirish |

| | | |
|-----------------|---|--|
| f_7-f_{10} | Shakl, o'rta, chap va o'ng og'ish | Assimetrik normal taqsimotni "V"ga keltirish |
| $f_{11}-f_{14}$ | Shakl, o'rta, chap va o'ng og'ish | Assimetrik normal taqsimotni D1 ga keltirish |
| $f_{15}-f_{18}$ | Shakl, o'rta, chap va o'ng og'ish | Assimetrik normal taqsimotni D2 ga keltirish |

3-bosqich. Ushbu bosqichda tasvir sifatini bashorat qilingan bahosini hisoblash amalga oshirilib, unda tasvir sifati bahosini hisoblash uchun uning f_1, \dots, f_{18} belgilari oldindan o'qitib olingan regression modelga boshlang'ich ma'lumotlar sifatida kiritiladi.

Xulosa. Tasvir sifatini baholashning uch bosqichli algoritmi ishlab chiqildi. Bu dastlabki ishlov berish algoritmlarini tanlash strategiyasini tuzish imkonini beradi. Tanlab olingan algoritmlar asosida dastlabki ishlovni amalga oshirish nisbatan yuqori sifatlil tasvirni ta'minlaydi.

Tasvirlar sifatini oshirish algoritmlari qiyosiy tahlil qilindi. Tahlil natijalari asosida qo'lyozma tasvirlari sifatini oshirish uchun mos algoritmlar tanlandi va ular tasvirdagi xiralashish, kontrastni oshishi va yorqinlik gistogrammasi notekisligini bartaraf etish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Гонсалес Р., Вудс Р. Цифровая обработка изображений. – М.: Техносфера, 2012. – 1104 с.
2. Местецкий Л. М. Непрерывная морфология бинарных изображений. Фигуры. Скелеты. Циркуляры. – М.: Физматлит, 2009. – 287 с.
3. Шапиро Л., Стокман Дж. Компьютерное зрение. – М.: Бином. Лаборатория знаний, 2006. – 752 с.
4. Яне Б. Цифровая обработка изображений. – М.: Техносфера, 2007. – 583 с.
5. Al Maadeed S., Ayouby W., Hassaine A., Aljaam J.M. QUWI: An Arabic and English handwriting dataset for offline writer identification. In

Proc. of Int. Conf. on Frontiers in Handwriting Recognition, 2012, pp. 746-751.

6. Mittal A., Moorthy A.K., and Bovik A.C. No-Reference Image Quality Assessment in the Spatial Domain. IEEE Transactions on Image Processing. Vol. 21, Number 12, December 2012, pp. 4695-4708.

АДАПТАЦИЯ МОДЕЛЕЙ ОПЕРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИМИ ПРОЦЕССАМИ ПО ТЕХНИКО-ЭКОНОМИЧЕСКИМ ПОКАЗАТЕЛЯМ

Узоков Бархаёт Мухаммадиевич,
Докторант Ташкентского университета информационных технологий имени Мухаммада ал-Хорезми

